

**Valijonova Shaxrizoda Valijon qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti jinoiy odil-sudlov fakulteti 1-kurs talabasi

[shaxrizodavalijonova537@gmail.com](mailto:shaxrizodavalijonova537@gmail.com)

## Annotatsiya

Ushbu maqola sun'iy intellektni yuridik sohada qo'llashning etik tomonlari, hamda SI dan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari masalasiga qaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi SI ni huquq sohasida to'g'ri qo'llashni targ'ib qilish va undan foydalanishda me'yor talablarni aniqlashtirish, shuningdek, SI elementlari asosida ishlovchi tizimlarning foydalari va kamchiliklarini muhokama qilishdan iborat. Ushbu maqolani yozishda xalqaro qonunchilik manbalari, maqolalar, adabiyotlar o'rganildi va sifatli tahlil yondashuvidan foydalanildi. Turli xil SI lar va SI elementlari asosida ishlovchi tizimlar tahlil qilindi. Ulardan yuridik sohada foydalanishdagi ustunliklar va kamchiliklar muhokama qilindi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, huquq, yuridik soha, qonun, etik jihatlar, LexisNexis, lex.uz, chat-bot, etik nazorat.

Sun'iy intellekt – bu insonning fikrlash, o'rganish va qaror qabul qilish jarayonlarini kompyuterlar va dasturlar orqali taqlid qiluvchi texnologiyalardir. U katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanadi, o'z-o'zini rivojlantirib takomillashtiradi va ko'pincha insondan ko'ra tezroq ishlaydi, aniq ma'lumotlar beradi. Smartfonlarimizda Google Assistant, Siri, Bixby, Gemini, kabi sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalangan holda bizning savol va buyruqlarimizga javob beradigan raqamli yordamchilarni ko'ramiz va foydalanamiz. Masalan, Google Assistantdan „Bugun havо qanday” deb so'rasangiz u tezda aniq va to'g'ri javobni beradi yoki telefonlarimizdagi ChatGPT har qanday savol va jumboqlarga fan va ishonchli manbalar asosida ma'lumotlarni taqdim etadi. SI lar ko'plab sohalarda keng foydalaniladi, masalan, tibbiyot, iqtisod, bank, ta'lim, huquq va raqamli texnologiyalar. Albatta, undan foydalanishning belgilangan tartibi va doirasi, umuman olganda, foydalanish etikasi mavjud. Mazkur esseda yuridik sohadagi SI lar va onlayn platformalardan foydalanishning etik jihatlari haqida muhokama qilamiz.

Dastlab, sun'iy intellekt tushunchasining qanday paydo bo'lganligi va qachon huquq sohasiga kirib kelganligi haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz. SI ni ilmiy yo'nalish

sifatida rivojlantirish faqat EHM yaratilganidan keyin mumkin bo'lgan. Bu XX asrda sodir bo'lgan. Bu vaqtda Norbert Viner yangi fan kibernetika bo'yicha o'zining asosiy ishlarini yaratadi. Sun'iy intellekt tushunchasi ilk bor 1956-yilda Dartmut konferensiyasida John McCarthy tomonidan ilmiy atama sifatida kiritilgan. Avval nazariy bo'lgan bu SI, keyinchalik dasturlash, matematika va nevrologiya sohalarida rivojlanishlar bilan kuchaydi. 1997-yilda IBM ning Deep Blue superkompyuteri shaxmat bo'yicha jahon chempioni Garri Kasparovni mag'lub etishi SI tarixidagi muhim burilish nuqtasiga aylandi. Hozirda esa turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlar bilan takomillashtirilgan SI inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqq oladi. Huquq sohasida SI ning amaliy qo'llanishi dastlab juda cheklangan edi, faqat bir necha kompaniyalar yuridik maqsadlar uchun maxsus SI dasturlarini ishlab chiqargan. Ularning funksiyalari asosan e-discovery (elektron dalillarni topish, shartnoma tahlili) va "due diligence" (yuridik tekshiruv) bilan chegaralangan edi. SI huquq sohasiga "Expert systems" orqali kirgan. XIX asrning 70-yillarida kompyuter bo'yicha Stanford universiteti professori Edward Feigenbaum "Expert Systems" ni kashf etdi. Xuddi shu davr oxirida Donald Waterman "Expert Systems" konsepsiyasini huquqiy masalada qo'llashni taklif qilgan. Vaqt o'tib bu tizimlar prognozlash, kasalliklarni diagnozlash va hukm chiqarish jarayonida samarali ekanligi ko'rina boshladi. Bu iqtisod, mexanika injeneringi, telekommunikatsiyalar, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, transport, mijozlarga xizmat ko'rsatish va huquq sohasida katta ahamiyat kasb etdi. "AI yoki kompyuter ilmi (qoidalarga asoslangan ya'ni algoritmik fan sifatida ta'riflanishi mumkin) huquqqa (yoki qoidalarga asoslangan huquq nuqtayi nazariga) duch kelganida, qonunni kompyuterlashtirishga intilish paydo bo'ladi: ya'ni biz shunchaki huquqiy qoidalarni olib, ularning qoidalar majmuasi (bilim bazasiga) kiritamiz va deduktiv strategiya (qoida talqinchisi) bilan talqin qilamiz. Aslida, bu kompyuter ilmi AI va huquq sohasining hozirgi va asosiy yo'nalishidir"<sup>1</sup>

Ayni vaqtda dunyoda yuridik sohada foydalaniladigan SI lar soni ko'p. Masalan, LexMachina, Kira Systems, LawGeex, LexisNexis va boshqalar. O'zbekistonda ham Lex AI, Yoqla AI, Tuzuk AI kabi huquqiy soha uchun maxsus yaratilgan SI lar mavjud, biroq ular soni ko'p emas. Bundan tashqari SI elementlari asosida ishlaydigan Lex.uz, yurxizmat.uz, E-sud kabi platformalar ham mavjud. Ulardan yuristlar, talabalar va oddiy fuqarolar ham keng foydalanadi.

<sup>1</sup> Leith P. The application of AI to law //AI & SOCIETY. – 1988. – T. 2. – №. 1. – C. 31-46

Metodlar. Ushbu maqolada SI lar va ularning vazifalari hamda ulardan yuridik sohada foydalanishning etik jihatlari, foydalanish bilan bog‘liq muammolar va yutuqlar tahlil qilindi. Bunda ilmiy-amaliy, tahliliy va qiyosiy metodlar qo‘llanilgan.

## Tadqiqot natijalari.

KiraSystems. Bu SI 2011-yilda Kanadaning Toronto shahrida tashkil etilgan. Manbalarga ko‘ra KiraSystems 50 dan ortiq mamlakatlarda ishlatilmoqda va kattaroq huquqiy firmalar, maslahat firmalari hamda korporatsiyalar tomonidan qo‘llanilmoqda. Kira Systems korxonalariga o‘z shartnomalaridagi tegishli ma‘lumotlarni aniqlashga yordam beradi. U shartnoma matnlarini izlash va tahlil qilishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadigan kuchli dastur. “PwC tomonidan 2022-yilda Kira Systems bo‘yicha keys tahlili o‘tkazildi va u Kira Systemsdan foydalanish 500ta tashkilot uchun shartnomalarni ko‘rib chiqish vaqtini taxminan 60%ga qisqartirganini ko‘rsatdi. Shuningdek, u aniqlikni 30%ga oshirdi. U yetti kundan kamroq vaqt ichida 50000ta shartnomani ko‘rib chiqdi. Qo‘lda bajarilganda bu kabi vazifalar odatda haftalar va oylarni olardi”<sup>2</sup>

LexisNexis. LexisNexis – bu yuridik, biznes, davlat va akademik sohalarida ishlaydigan mutaxassislar uchun mo‘ljallangan axborot-tahliliy platforma. LexisNexis huquqiy ma‘lumot bazalari, qidiruv va tahlil vositalari, sun‘iy intellekt texnologiyalarini o‘zida jamlaydi. U 100 dan ortiq mamlakatlardagi qonuniy manbalar va yangiliklarni o‘z ichiga oladi. Tizim ichidagi Lexis Practical Guidance amaliy huquqiy tavsiyalar beruvchi xizmatni taklif etadi. LexisNexis yuridik tahlil va tadqiqot sohasidagi eng ilg‘or platformalardan biri hisoblanadi. U inson huquqlari buzilmasligini kafolatlaydi. “Birlashgan millatlar tashkilotining Global kelishuvi ishtirokchisi sifatida LexisNexis inson huquqlarini hurmat qilishga va inson huquqlari buzilishida ishtirok etmaslikka ochiqchasiga sodiqlik bildirgan.”<sup>3</sup>

LexAI. Sun‘iy intellekt yordamida huquqiy masalalarga tezkor javob beruvchi chat-bot. Ushbu platformada huquqiy masalalarga javob topishga ko‘maklashadigan yordamchi chat-bot, hujjatlarni huquqshunos ishtirokisiz konstruktor asosida mustaqil tayyorlash, ekspertiza qilib berish, berilgan keyslarga huquqiy amaliyotni tahlil etish asosida javob berishga mo‘ljallangan xizmatlar jamlangan. Ushbu platforma loyiha holatida va to‘liq ishga tushmagan. U quyidagi xizmatlarni amalga oshirishi kutilmoqda:

---

<sup>2</sup> Emejuo C. C. et al. The impact of Artificial Intelligence on legal practice: enhancing legal research, contract analysis, and predictive justice. – 2024.

<sup>3</sup> Lui Y. LexisNexis and ICE: An Examination of LexisNexis’s Human Rights Responsibilities //NYUJ INT’L L. & POL. – 2022. – T. 54. – C. 70, 82.

- huquqiy savollarga 24/7 rejimida javob beradi;
- javob manbasida tegishli hujjatning giper havolasini beradi;
- ovozli savol berish va ovozli javob olish mumkin;
- chat-bot o‘zini o‘zi o‘qitish orqali takomillashib boradi;
- so‘rovlar tarixini tasdiqlaydi;
- yangi qonunchilik hujjatlari bilan muntazam yangilanadi
- istalgan aloqa qurilmalari orqali foydalanish imkoniyati mavjud.

Tuzuk AI. Yuridik firmalar va huquqshunos mutaxassislar uchun SI asosida ishlaydigan yuridik platforma. U AI chat, hujjat tuzuvchi va tahlil hamda yuridik hujjatlar uchun aqlli SI qidiruvini taklif etadi. Bu xizmatlarning barchasi bitta platformaga joylangan. Keling, endi SI elementlari asosida ishlaydigan huquqiy platformalarni ko‘rib chiqamiz.

E-sud – bu elektron sud tizimi, ya’ni sud ishlarini raqamli shaklda yuritish va boshqarish imkoniyatini beruvchi onlayn platformadir. “O‘zbekistonning E-sud tizimi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga murojaat qilish, sud hujjatlarini elektron shaklda taqdim etish va sud qarorlarini olish imkonini beradi.”<sup>4</sup> Jahonning bir qancha davlatlarida sud tizimida SI dan foydalanish allaqachon boshlab yuborilgan. Masalan, Xitoyda uncha murakkab bo‘lmagan ishlar va kam qiymatli shartnomaviy nizolarni hal qilishda “sun’iy intellekt sudyalari” yordamidan foydalanilmoqda. Albatta SI dan sud ishlarida foydalanishning alohida xususiyatlari bor. “P.M. Morxat sun’iy intellektdan sud jarayonlarida foydalanishning o‘ziga xos jihatlarini sanab o‘tgan:

Normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasini aniqlash maqsadida o‘zaro solishtirish;

Chet el elementi ishtirokidagi sud jarayonlarida sinxron professional huquqiy tarjimalarni amalga oshirish;

Avtomatik ravishda huquqiy hujjatlarni tasniflash, shakllantirish va hujjatlashtirish.

Taraflarning buzilgan huquqlarini aniqlashda sudyaga yordam berish;

Operativ ekspert bahosi zarur bo‘lganda, sun’iy intellektdan foydalangan holda huquqiy qarorlar qabul qilish;

Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha ishlarni kompleks tekshirish;

---

<sup>4</sup> Yusupova S. RAQAMLI JINOYATLAR TERGOVIDA ELEKTRON ODIL SUDLOV TIZIMINING XALQARO INTEGRATSIYASI //Международный журнал научных исследователей. – 2025. – Т. 11. – №. 1. – С. 565-572.

Sudyalarni maxsus ro‘yxat bo‘yicha tanlash;

Sud xatoliklarini tekshirish va boshqalar.<sup>5</sup>

Bundan tashqari O‘zbekistonda kichik biznes va kam ta‘minlangan aholiga huquqiy maslahat berish, ularning taklif va tashabbuslarini qabul qilish qilishning yangi tizimini joriy etish, advokatlar ishtirokisiz huquqiy hujjatlarni tayyorlash imkoniyatini yaratish maqsadida [www.yurxizmat.uz](http://www.yurxizmat.uz) —o‘z-o‘ziga yuridik xizmat ko‘rsatish tizimi joriy qilingan. Bu aholiga huquqiy hujjatlarni o‘zlari yozishi va to‘ldirishi uchun sharoit yaratadi.

Tadqiqot natijalari tahlili.

Bir qancha SI lar va SI elementari asosida ishlaydigan platformalar haqida tanishib chiqdik. Endi ulardan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari hamda huquq sohasida SI ni qo‘llashning etik xususiyatlarini atroflicha tahlil qilamiz. Biz insonlar SI ni ko‘plab sohalarda foydalanyapmizmi, demak, uning foyda va kamchiliklarini bilishimiz kerak. Aynan uning ijobiy va salbiy xususiyatlarini bilish bizga SI dan to‘g‘ri foydalanishga imjoniyyat yaratadi. SI ning huquq sohasidagi pozitiv va foydali jihatlari ko‘lami keng. Ular hujjatlarni tahlil qilishni tezlashtirdi va avtomatlashtirishga xizmat qildi, (Kira Systems, Luminance) qonun va hujjatlar qidiruvi birmuncha osonlashdi, (LexisNexis) inson tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan huquqiy xatoliklar kamaydi. Shuningdek yuridik sohada SI foydalanish natijasida korrupsiya holatlarini qisqaradi va vaqt tejaladi, huquqiy xizmatlar raqamlashtirilib, huquqiy tizim zamonaviylashadi. SI boshqa sohalarda yaxshi natijalar berayotganini ko‘rishimiz mumkin. “Sun‘iy intellekt yoki AI nomi bilan mashhur bo‘lgan texnologiya—ma‘lum elektron ma‘lumotlar asosida ishlarni avtomatik ravishda amalga oshira oladigan sun‘iy intellekt texnologiyasidir. AI texnologiyasi Indoneziyadagi turli ish sohaslarida, masalan, sog‘liqni saqlash, elektron tijorat, sanoat va boshqalarda keng qo‘llanilmoqda. AI ning elektron ma‘lumotlar asosida turli ishlarni avtomatik bajarish qobiliyati, albatta, biror bir sektor faoliyatida innovatsion, samarali yechimlar va yaxshi xizmat ko‘rsatishga turtki bo‘ladi”<sup>6</sup> Biroq, ijobiy ta‘sirga erishish uchun SI yechimlari etik tamoyillarga amal qilishi kerak. Yevropa Komissiyasi va OECD innovatsion va ishonchli SI ni rivojlantirish bo‘yicha yo‘riqnomalar tayyorlagan. Tegishli tamoyillar “Montreal Declaration for Responsible AI” va Toronto

<sup>5</sup> Morhat P.M. Vozmojnosti,osobennosti i usloviya primeneniya iskusstvennogo intellekts v yuridicheskoy praktike. Administrator suda. 2018.2. pp

<sup>6</sup> Zahra Y. Regulating AI in Legal Practice: Challenges and Opportunities //Journal of Computer Science Application and Engineering (JOSAPEN). – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 10-15.

|Deklaratsiyasida belgilangan. Yevropa Komissiyasi SI ning kutilmagan zararining oldini olish uchun uning qonuniy, etik va mustahkam bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan.<sup>7</sup>

SI faqat o‘zida mavjud ma’lumot bilan ishlaganligi sababli ba’zan algoritmik noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishi va adolatsizlikka yo‘l qo‘yishi mumkin. SI intellekt ham kamchiliklarga qo‘yadimi? Undan huquq sohasida foydalanish to‘liq to‘g‘ri qarormi? Bu savollarga javob berish uchun SI ning salbiy va kuchsiz tomonlarini ko‘rib chiqamiz. Xuddi mana shu kamchiliklar yuristlarni va yuridik xizmatlardan foydalanish maqsadida SI ga murojaat qilayotgan fuqarolarni yuridik sohada ulardan foydalanishning etik jihatlarini ko‘rib chiqishga undaydi. Keling dastlab buning kamchiliklarini muhokama qilsak,

SI yuristlar uchun ish o‘rinlarini kamaytirishi mumkin.

Inson omilining yetishmasligi. Chunki huquq faqat statistik yoki mantiqiy tahlilga asoslanmaydi, ishlarda yuristlardan axloqiy, mulohaza, vijdon, simpatiya hamda vaziyatning noyob insoniy tomonlarini tushunish talab qilinadi. “Angliyalik essechi Charles Lamb mashhur ravishda shunday yozgan: “Ikki tomonni ham yoqlay olmaslik— bu advokat emas” Bu ko‘p jihatdan SI va huquq dasturlari uchun. Sudda ishonarli ishni yaratish uchun faqat bir tomonni yoqlash yoki yomonrog‘i, shunchaki bir tomon uchun fikr bildirish yetarli emas. Ishonchli himoyani yaratish uchun kishi o‘z tomoni uchun sabablarni keltira olishi, shuningdek, boshqa tomonning dalillarini oldindan ko‘ra bilishi va rad etishi kerak.”<sup>8</sup>

Etik javobgarlik. “AI dan foydalanish biz hali ham tushunishga harakat qilayotgan yangi etik savollarni keltirib chiqaradi. AI jiddiy xato qilganda kim javobgar? AI dasturi bilan bo‘lishilganda mijozning imtiyozli ma’lumotlari qanday himoyalangani? Foydalanuvchilar AI bilan bo‘lishayotgan ma’lumotlari chinakam himoyalanganligini qanday bilishadi?”<sup>9</sup> SI chiqargan qaror noto‘g‘ri bo‘lsa kim javobgar bo‘lishi masalasi. “Amaliyotchi huquqshunoslar ABA Professional xulq-atvor model qoidalarining 1.1-qoidasi “huquqshunos mijozga malakali vakillikni ta’minlashi shart” ekanligi va bu majburiyat “vakillik uchun oqilona zarur bo‘lgan huquqiy bilim, mahorat, puxtalik va tayyorgarlikni talab qilishini” bilishadi. 40 dan ortiq shtatlar 1.1-qoidaga 8-izohni qabul qilgan, unda shunday deyilgan:”zarur bilim va ko‘nikmalarni saqlab qolish uchun advokat qonun va uning amaliyotdagi o‘zgarishlaridan, shu jumladan texnologiyalar bilan

<sup>7</sup> Siau K., Wang W. Artificial intelligence (AI) ethics: ethics of AI and ethical AI //Journal of Database Management (JDM). – 2020. – T. 31. – №. 2. – C. 74-87

<sup>8</sup> Atkinson K., Bench-Capon T., Bollegala D. Explanation in AI and law: Past, present and future //Artificial Intelligence. – 2020. – T. 289. – C. 103387.

<sup>9</sup> Esfandi G. The potential and drawbacks of using artificial intelligence in the legal field //Plaintiffmagazine. com. – 2023.

bog‘liq foyda va xatarlardan xabardor bo‘lib turishi kerak.”<sup>10</sup> Masalan, mijozlar huquqiy vakillik maqsadlarini tanlaydilar va advokatlar ushbu maqsadlarga erishish strategiyasini tanlaydi — ammo advokatlar Model Rules bo‘yicha o‘z mijozining maqsadlariga erishish uchun tanlagan vositalari haqida mijoz bilan maslahatlashish kerak. Bu shuni anglatadiki, agar sun‘iy intellect vositasi yuridik hujjatlarni yozayotgan bo‘lsa, mijozga bu haqda xabar berilishi va unga e‘tiroz bildirish imkoniyati berilishi kerak. Ana shunda javobgarlik masalasi katta muammoga aylanmaydi.

Maxfiy ma‘lumotlarni himoyalash qiyin bo‘lishi mumkin. “AI dan foydalanish ko‘pincha mijozning hujjatlarini va ma‘lumotlarini bulutga yoki serverga joylashni talab qiladi. Maxfiy yuridik ma‘lumotlarni AI tizimlarida saqlash ma‘lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi borasida xavotirlarni keltirib chiqaradi. Agar platformaning xavfsizligi choralari buzilsa, bu mijozning maxfiyligiga potensial xavf tug‘dirishi mumkin.”<sup>11</sup> Bunda SI tizimlarida ma‘lumotlarning saqlanishi va qayta ishlanishi kiberhujumlar va axborotning sizib chiqishi xavfini oshiradi.

Yetarli darajada tartibga solinmasligi. Bugungi kunda yuridik sohada SI dan foydalanishni boshqarish bilan bog‘liq talab va qoidalarni belgilovchi aniq standartlashtirilgan normalar mavjud emas. Darhaqiqat, huquqiy ishlarda, masalan, sudlarda yoki tergov, so‘roq qilish jarayonida advokat, sudya va tergovchilardan ba‘zida ishga psixologik nuqtayi nazardan yondashish talab qilinadigan holatlar bo‘ladi. Buni rad etib bo‘lmaydi, chunki jinoyatlarni ochish, jinoyatchini aniqlash, jinoyatchining aybini bo‘yniga qo‘yib, buni tan oldirishga faqatgina qonunlar, normalar, tartib-qoida va javobgarlikni qo‘llab erishish imkonsiz. SI ning ishlashi esa inson manfaatlarini buzmasligi kerak. “Hozircha AI xulqini tartibga soluvchi eng mashhur me‘yoriy tizim bu Isaac Asimov tomonidan 1950-yillarda ilgari surilgan Robotatexnikaning Uchta Qonuni hisoblanadi.

1. Birinchi qonun. Robot insonni jarohatlamasligi va harakatsizligi sababli inson zarar ko‘rishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.
2. Ikkinchi qonun. Robot inson bergan buyruqlarni bajarishi shart, agar bu buyruqlar birinchi qonunga zid bo‘lmasa.
3. Uchinchi qonun. Robot o‘z mavjudligini himoya qilishi kerak, lekin bu himoya birinchi va ikkinchi qonun bilan ziddiyatga tushmasligi lozim... Bu ayniqsa ongga ega AI tizimlari uchun muhimdir: bunday tizimlar insonlarga zarar yetkazmasligi, shuningdek

<sup>10</sup> Duplantier T. *AI and ethical concerns for legal practitioners* [Elektron resurs]. – LexisNexis Thought Leadership, 2024. – [https://www.lexisnexis.com/community/insights/legal/b/thought-leadership/posts/ai-and-ethical-concerns-for-legal-practitioners?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.lexisnexis.com/community/insights/legal/b/thought-leadership/posts/ai-and-ethical-concerns-for-legal-practitioners?utm_source=chatgpt.com)

<sup>11</sup> Esfandi G. The potential and drawbacks of using artificial intelligence in the legal field //Plaintiffmagazine. com. – 2023.

boshqa intellektual tizimlarga ham zarar keltirmasligi lozim. Shu sababli, robotatexnikaning uch qonunini kengaytirish va SI lar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ham hisobga olish kerak.”<sup>12</sup>

## Xulosa.

Bu kamchiliklar SI ni huquqiy sohada joriy etishda ehtiyotkorlik, etik nazorat va qat'iy qonuniy tartibga solish zarurligini ko'rsatadi. . “SI advokatlar uchun o'z amaliyotlarini soddalashtirish, mijozlarning pulini tejash va yuqori sifatli vakillikni ta'minlash uchun ajoyib imkoniyatdir. Shu bilan birga, u etik xatarlar bilan to'la. Shu sababli, advokatlar SI ga vazifalarni ishonib topshirishda ehtiyotkor bo'lishlari va agar shunday qilsalar, uning ishini sinchiklab tekshirishlari kerak. Professional mas'uliyat qoidalari advokatlardan texnologiyasidan voz kechishni talab qilmaydi — aslida, qoidalar ba'zida ulardan foydalanishni rag'batlantiradi.”<sup>13</sup>

Jamiyatda aholi ham SI dan yuridik xizmatlar olish uchun yoki boshqa huquqiy kontekstlarda foydalanayotganda etikani saqlashi va belgilangan tartibga rioya qilishi kerak. Fuqarolar tomonidan huquqiy sferadagi SI lardan foydalanilayotganda ularning aniq bir maqsadi bo'lishi zarur, hukumat bu kabi rasmiy tUSDagi va davlatning xizmatlari va yuridik ma'lumotlar bilan ishlovchi SI lar faoliyatini nazorat qilishi va undan bemaqsad, ko'rko'rona foydalanishni cheklashi kerak. Bundan tashqari, yurist va advokatlar ish faoliyati jarayonida shaxsiy mulohaza va insoniy fikrlashni talab qiladigan hollarda SI ga tayanib qolishni oldini olishi va boshqa vaziyatlarda esa ular bilan ishlash bo'yicha yetarli bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Agarda huquqiy sohada SI lardan to'g'ri foydalanilsa va jarayon to'g'ri boshqarilsa bu— sohani rivojlantiradi, aksincha, noto'g'ri boshqarilsa va loqaydlik bilan qaralsa bu fuqarolarga ham yuristlarga ham noqulayliklar tug'diradi, mamlakatda huquqiy bo'shliqlar paydo bo'ladi, hatto inson huquqlari buzilishi holatini ham keltirib chiqaradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Leith P. The application of AI to law //AI & SOCIETY. – 1988. – T. 2. – №. 1. – C. 31-46

<sup>12</sup> Tomašev N. et al. AI for social good: unlocking the opportunity for positive impact //Nature Communications. – 2020. – T. 11. – №. 1. – C. 2468.

<sup>13</sup> Gerzhoy H., Pasichow J., Wynn G. AI and legal ethics: What lawyers need to know [Elektron resurs]. – LexisNexis Practical Guidance Journal, 2024. – Rejim dostupa: <https://www.lexisnexis.com/community/insights/legal/practical-guidance-journal/b/pa/posts/ai-and-legal-ethics-what-lawyers-need-to-know>

2. Emejuo C. C. et al. The impact of Artificial Intelligence on legal practice: enhancing legal research, contract analysis, and predictive justice. – 2024.

3. Lui Y. LexisNexis and ICE: An Examination of LexisNexis's Human Rights Responsibilities // NYUJ INT'L L. & POL. – 2022. – T. 54. – C. 70, 82.

4. Yusupova S. RAQAMLI JINOYATLAR TERGOVIDA ELEKTRON ODIL SUDLOV TIZIMINING XALQARO INTEGRATSIYASI // Международный журнал научных исследователей. – 2025. – Т. 11. – №. 1. – С. 565-572

5. Morhat P.M. Vozmojnosti, osobennosti i usloviya primeneniya iskusstvennogo intellekta v yuridicheskoy praktike. Administrator suda. 2018.2. pp

6. Zahra Y. Regulating AI in Legal Practice: Challenges and Opportunities // Journal of Computer Science Application and Engineering (JOSAPEN). – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 10-15.

7. Siau K., Wang W. Artificial intelligence (AI) ethics: ethics of AI and ethical AI // Journal of Database Management (JDM). – 2020. – Т. 31. – №. 2. – С. 74-87.

8. Atkinson K., Bench-Capon T., Bollegala D. Explanation in AI and law: Past, present and future // Artificial Intelligence. – 2020. – Т. 289. – С. 103387.

9. Esfandi G. The potential and drawbacks of using artificial intelligence in the legal field // Plaintiffmagazine.com. – 2023.

10. Duplantier T. *AI and ethical concerns for legal practitioners* [Elektron resurs]. – LexisNexis Thought Leadership, 2024. – [https://www.lexisnexis.com/community/insights/legal/b/thought-leadership/posts/ai-and-ethical-concerns-for-legal-practitioners?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.lexisnexis.com/community/insights/legal/b/thought-leadership/posts/ai-and-ethical-concerns-for-legal-practitioners?utm_source=chatgpt.com)

11. Tomašev N. et al. AI for social good: unlocking the opportunity for positive impact // Nature Communications. – 2020. – Т. 11. – №. 1. – С. 2468.

12. Gerzhoy H., Pasichow J., Wynn G. AI and legal ethics: What lawyers need to know [Elektron resurs]. – LexisNexis Practical Guidance Journal, 2024. – Rejim dostupa: <https://www.lexisnexis.com/community/insights/legal/practical-guidance-journal/b/pa/posts/ai-and-legal-ethics-what-lawyers-need-to-know>